

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT IMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

ODILOVA FERUZAXON VALIJON QIZI

**MALAKALI VOLEYBOLCHILARNING TEXNIK TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Odilova Feruzaxon Valijon qizi

Malakali voleybolchilarning texnik tayyorgarligini
takomillashtirish.....5

Odilova Feruzaxon Valijon qizi

Совершенство технической подготовки квалифицированных
волейболисток27

Odilova Feruzaxon Valijon qizi

Improvement of the technical training of elite female volleyball
players.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

ODILOVA FERUZAXON VALIJON QIZI

**MALAKALI VOLEYBOLCHILARNING TEXNIK TAYYORGARLIGINI
TAKOMILASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.Phd/Ped7983 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.uzdjtsu.uz va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

| | |
|----------------------------|---|
| Ilmiy rahbar: | Olomov Muhsinbek Sotvoldiyevich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor |
| Rasmiy opponentlar: | Qo‘chqarov Otabek Axmatboyevich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Boltayev Zayniddin Boltayevich pedagogika fanlari nomzodi, professor |
| Yetakchi tashkilot: | Guliston Davlat Universiteti |

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O‘zbekiston ko‘chasi, Olimpiya shaharchasi. Tel: (0-370)-717-18-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, Veb-sayt: www.djtsu.uz, e-mail: info@djtsu.uz. O‘zbekiston davlat sport akademiyasi “Ma’muriy” bino 1-qavat, 145-xona)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel: (0-370)-717-18-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025- yil “___” _____ da _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Kerimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

D.Y.Egamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadabayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda zamonaviy voleybol eng mashhur sport o'yinlaridan biridir. Zamonaviy voleybolning o'ziga xos tendensiyasi turli darajadagi musobaqalarda jamoalar o'rtasidagi raqobatbardoshlik yanada kuchayib borishidir. O'yinchilar muvaffaqiyatli individual hujum holatlariga qarab o'yin g'olibini aniqlay oladigan, ayniqsa, zamonaviy voleybolda yuqori baholanadi. O'yin hujumchilarining nostandart-me'yoriy bo'lmagan, kutilmagan holatlari eng murakkab vaziyatlarda, o'yinning hal qiluvchi daqiqalarida kerakli natijaga erishishga imkon beradi. Malakali voleybolchi qizlarni tayyorlashda texnik-taktik ko'nikmalarini oshirish va ularga o'yin jarayonida yuqori darajali qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratish, raqib xujumini bartaraf etish uchun to'siq qo'yish kabi murakkab texnik tayyorgarliklarni namoyish etishi ushbu sport turini ommalashishiga olib kelmoqda. Qolaversa, voleybol sport turini dunyo amaliyotiga joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyotida xususan, voleybolda raqobat darajasi yil sayin oshib bormoqda. Xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishish uchun sportchilarning jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda, texnik mahoratini takomillashtirish ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Malakali voleybolchilarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning asosiy texnik harakatlarni to'g'ri bajara olishiga, hujum va himoya usullarini mukammal o'zlashtirganiga bog'liq. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yetakchi terma jamoalar va klublarda texnik tayyorgarlik tizimli ravishda takomillashtirilib boriladi, natijada o'yinchilar yuqori samaradorlikka erishmoqda. Shu nuqtai nazardan, malakali voleybolchilarning texnik tayyorgarligini chuqur o'rganish va uni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish, ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda voleybol sport turi ommalashgan sport turlariga aylangan bo'lsada, lekin xalqaro sport arenalarida sportchilarimizni yuqori natijalarga erishish, voleybol bo'yicha sportchilar tayyorlash tizimida yetarlicha kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi chunki, voleybolchilarni tayyorgarlik jarayonlarida texnik tayyorgarligini rivojlantirmas ekanmiz oldimizga qo'yilgan maqsadga erisholmaymiz. Bu esa voleybol sport turida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanib qolaveradi. Bugungi kunda O'zbekiston voleybolining rivojlanishi, afsuski, xalqaro professional voleybolga mos pog'onalardan ancha yiroqdir. Shu bilan birga, ko'pchilik tadqiqotchilar faqat hujum zarbasini bajarish texnikasini va uni amalga oshirish xususiyatlarini tahlil qilishadi. Shu bilan birga, voleybolchilarning hujum natijalarini ko'tarish, samaradorligini oshirishning mumkin bo'lgan usullaridan biri, bizning fikrimizcha, o'yinchilarning kutilmagan taktik va texnik holatlarini izlashdir. Bunday holatlar kutilmagan va oldindan aytib bo'lmasligi

¹2024 - yil 19- iyuldagi PQ-274 son "Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda sohaga aloqador boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ko'rsatib o'tilgan ustuvor vazifalar ijrosini taminlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

sababli hujumchi o'yinchilarga himoyachilardan bir soniya oldinda turishga imkon beradi, bu ko'plab o'yin vaziyatlarida uyushmagan blokga qarshi hujumlar uchun yetarli bo'lishi mumkin.

Ushbu dissertatsion tadqiqot loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan soha bo'yicha qabul qilingan bir qator Farmon va Qarorlar jumladan, 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024 - yil 19- iyuldagi PQ-274 son "Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda sohaga aloqador boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ko'rsatib o'tilgan ustuvor vazifalar ijrosini taminlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirish: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlar doirasiga mos ravishda amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dissertatsiya mavzusiga oid mutaxassis-olimlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari va ularning qiyosiy tahliliga asoslangan xulosalar hamda amaliy-uslubiy tavsiyalar qator ilmiy-nazariy jurnallar, Respublika va xalqaro ilmiy anjumanlar to'plamlari, shu jumladan ilmiy asarlar hamda monografiyalarda chop etilgan.

²Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. // Oliy o'quv yurtlari uchun Darslik. T.: 2011. - 278 b.; Ummatov A.A. Malakali voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyatini shakllantirish va uni baholash metodikasini ishlab chiqish / Diss... avtoref...p.f.f.d.(PhD)- Chirchik, 2020 -59 b.; Boltayev A.A. Yosh voleybolchilarda maxsus ish qobiliyatini rivojlantirish va uni o'yin davomida saqlash imkoniyati / Diss...avtoref...p.f.f.d.(PhD)- Chirchik, 2021 -64 b.; Xudoyberganov O.E. Voleybol vositalari yordamida pedagogik oliygozlarda jismoniy madaniyat fakultet talabalarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmi / Diss... avtoref...p.f.f.d.(PhD)- Chirchik, 2021 -65 b.

³ Волков Л.П. Киев, Олимпийская литература, 2002. – 294с.; Немцов О.Б. Место точности движений в структуре физических качеств./ Ж. ТиПФК. № 8. 2003, С.22-26 с.; Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в Олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. Киев, Олимпийская литература, 2004. – 808с.; Годик М.А. М.: Терра-Спорт, 2006. – 272с.; Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. М.: Физкультура и спорт, 2007. – 331с.; Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учеб.пособие. – М.: Академия, 2008. – 478с.; Истаров Б.Б. Методика обучения технике игры в волейбол. Учеб пособие-200. 512с; Годик М.А. М.: Терра-Спорт, 2006. – 272с.; Николаева О.В. Повышение эффективности атакующих действий в волейболе на основе использования обманных движений в фазе разбега нападающего удара / дисс...2021, С.55-76; Tizana I., Altivilla G., Gaetano R., Teaching method in volleyball service: intensive and exenstive tools in cognitive and ecological approach. 2017.- P. 22- 50.; Бомпа Т., Периодизация: теория и методология тренировки / пер. с англ. – М.: Терра-Спорт, 2010. – 432 с.; Xelifi Monji., Структура и содержание годичного цикла подготовки квалифицированных команд по волейболе. 1998.- С.15-21.

Jumladan mahalliy olimlarimiz L.R.Ayrapetyans², A.A.Pulatov, A.A.Boltayev, A.A.Umrmonov, A.A.Ummatov, Z.B.Boltayevlar tomonidan turli sport malakasiga ega voleybolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarliklari, shu jumladan voleybolchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish borasida ilmiy ishlar olib borilgan.

Mustaqil davlatlar hamdostligi olimlari Yu.V.Verxoshanskiy, L.P.Volkov, M.A.Godik, L.P.Matveyev, L.D.Nazarenko, O.B.Nemsov, O.V.Nikolayeva, V.N.Platonov, V.M.Filin, J.K.Xolodov va V.S.Kuznesov va boshqalar tomonidan samarali tayyorgarlik metodlari ishlab chiqilgan.

Jahonda ham voleybolchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. T.O.Bompa, T.A.Ozolin, P.V.Komi, E.P.Ruan, A.J.Sheppard kabi olimlarning ishlarida ham bu borada ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Shunday bo'lsada, ayol voleybolchilarning o'yin ampulasiga mos individual va texnik tayyorgarlik bo'yicha tadqiqotlar hanuzgacha cheklanganligi mavzuning dolzarbligini ta'minlaydi.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi Dissertatsiya ishi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining "Sport ta'lim muassasalarida seleksiya, saralash, bashorat qilish va oliy sport yutuqlarini rivojlanish monitoringini joriy qilish uchun raqamli texnologiyalarni yaratish" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi malakali voleybolchi qizlarning ampulasi bo'yicha texnik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

malakali voleybolchi qizlar uchun texnik tayyorgarligini baholash mezonini ishlab chiqish;

malakali voleybolchi qizlarni texnik tayyorgarlik samaradorligini oshirish uchun dastur ishlab chiqish;

malakali voleybolchi qizlarni sakrovchanlik qobiliyatini aniqlash;

malakali voleybolchi qizlarning o'yin ampulasini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan dastur samaradorligini tajribada asoslash.

Tadqiqotning obyekti oliy o'quv yurtlari voleybolga ixtisoslashgan talaba-qizlar o'quv-mashg'ulot jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini voleybolga ixtisoslashgan talaba qizlarni texnik tayyorgarligini ampulasi bo'yicha turli vosita usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuvlar, anketa so'rovnomasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, hamda matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

malakali voleybolchi qizlarni texnik tayyorgarligini ifodalovchi turli zonalardan to'p uzatish, himoyalani, hujum zonasida aldanchi harakatlar orqali raqib jamoaga to'pni yo'llash, to'pni o'yinga kiritish kabi texnik harakatlarni

bajarilishini baholash orqali, ularni texnik tayyorgarligini baholash imkoniyatlari shakllantirilgan;

malakali voleybolchi qizlarni texnik tayyorgarlik samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqilgan hujumkor zarbalar berishda to'pni uzatish, qabul qilish, o'yinga kiritish, to'siq qo'yish va himoyalanish kabi mashqlar arsenalini o'zlashtirish hisobiga texnik tayyorgarlik imkoniyatlari kengaytirilgan;

malakali voleybolchi qizlarni sakrovchanlik qobiliyatini oshirish uchun ishlab chiqilgan har xil balandliklarda va tekkis joylarda ijro etiladigan sakrash mashqlarini qo'llash va uni o'zlashtirish hisobiga, turli vaziyatlardan sakrab ijro etiladigan hujumkor zarbalar berish imkoniyatlari oshirilgan;

mashg'ulotlarda bog'lovchi, hujumchi, libero o'yinchilarni o'yin jarayonidagi funksional vazifasidan kelib chiqib texnik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan tabaqalashtirish tayyorgarlik modelini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash hisobiga o'yin samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

malakali voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarlik yordamida hujumkor zarbalarga o'rgatish va takomillashtirish uchun maxsus mashqlarni ishlab chiqish va tuzishdan iborat;

tayyorlangan metodik yondashuvlar asosida voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish uchun differensial yondashuvli mashg'ulot modellari ishlab chiqilgan va ular orqali individual xususiyatlarga moslashtirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyati yaratilgan;

malakali voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarliklarining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradigan mashqlar va kombinatsiyalar ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazildi;

baholash mezonlariga asoslangan tahlillar orqali voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarlik darajalari yaxshilanganligi pedagogik tajribada asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarini ishonchliligi. Malakali voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarliklarini oshirishda uslubiy yondashuvlar, informatsion tadqiqot usullaridan foydalanish, yetarli miqdordagi tanlab olish, mavjud materiallarni statistik qayta ishlashning to'g'riligi, shuningdek pedagogik tadqiqotlarning turli usullari yordamida olingan ma'lumotlarning qiyosiy va amaliy faoliyatning maqsadli tahlil qilinganligi, farazining aniq nazariy va amaliy natijalar bilan tasdiqlanganligi, natijalarning ishonchliligi uni chuqur tahlil va talqin qilish bilan ta'minlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, malakali voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarlikning turli texnik harakatlar yordamida amalga oshiriladigan hujum zarbasi samaradorligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlari, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalari shakllantirilgan. Olingan natijalar malakali voleybolchi qizlarni tayyorlash amaliyotida maxsus ish qobiliyatini doimiy nazorat qilib borish, uning yuklamalar ta'sirida o'zgarish sur'atini turli tayyorgarlik bosqichlarida baholash jismoniy va funksional

imkoniyatlar bilan bog'liq texnik-taktik yuklamalar hajmi va shiddatini optimallashtirish choralarini belgilab berdi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinganligi. Malakali voleybolchi qizlarning jismoniy va texnik tayyorgarligini monitoring qilish natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

malakali voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan maxsus dasturni mashg'ulotga kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar Andijon davlat universiteti voleybolga ixtisoslashtirilgan talaba-qizlarining mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq qilingan. Dasturdan foydalanish sportchi qizlarning musoboqa faoliyati samaradorligini yaxshilashga xizmat qildi. (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 19-avgust buyrug'iga asosan 02-16/1503-raqamli ma'lumotnoma). Natijada, talaba-qizlarining texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari 9.7 % ga oshdi;

malakali voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan baholash dasturini mashg'ulot jarayoniga kiritilishi bo'yicha taklif va tavsiyalar Andijon davlat universiteti voleybolga ixtisoslashtirilgan talaba-qizlarining mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq qilingan. Sportchi qizlarning musoboqa faoliyatida sport natijalarini oshirdi. (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 19-avgust buyrug'iga asosan 02-16/1503-raqamli ma'lumotnoma). Natijada, voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarlik darajasini oshirish bo'yicha qo'llanilgan baholash mezonini asosida musoboqalarga tayyorlash samaradorligi ko'rsatkichlari 10.3 % ga oshdi;

malakali voleybolchi qizlarning sakrovchanlik qobiliyatini oshirish uchun ishlab chiqilgan mashqlar kompleksini mashg'ulotlar jarayoniga kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar Andijon davlat universiteti voleybolga ixtisoslashtirilgan talaba-qizlarining mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 19-avgust buyrug'iga asosan 02-16/1503-raqamli ma'lumotnoma). Natijada sakrovchanlik ko'rsatkichlari 13,8 %, xujumda aniqlik 12,8 % yaxshilanishiga erishilgan;

malakali voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan tabaqalashtirilgan dasturni Andijon davlat universiteti voleybolga ixtisoslashtirilgan talaba-qizlarining mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 19-avgust buyrug'iga asosan 02-16/1503-raqamli ma'lumotnoma). Natijada, voleybolchi qizlarning musoboqa faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari 9.3 % ga yaxshilandi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot materiallari 1 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (3ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish va to'rtta bobdan iborat bo'lib, 145 sahifali matn, 4 ta rasm, 17 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslab berilgan. Muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotning bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy voleybolda hujum samaradorligini oshirishni muammoli masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida malakali voleybolchi qizlarning ampulasidan kelib chiqib ularning texnik tayyorgarligining mashg'ulotlarda asosiy mazmuni, qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi va funksional holatlarini nazorat qilishni amalga oshirishga yo'naltirilgan innovatsion usullari, zamonaviy texnologiyalar irqali sportchilardan tezkor ma'lumot olish bo'yicha o'quv-uslubiy adabiyotlar o'rganib chiqilgan bayon qilingan.

Mahalliy va xorijiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki malakali voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishning umumiy asoslari, yangicha ilmiy-nazariy yondashish dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etishda bir qator mahalliy olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, L.R.Ayrapetyans, A.A.Pulatov, O.N.Madaminov, J.M.Shukurullayev, R.X.Bekmansurov, A.X.Mardanov, R.S.Salamov, E.V.Kudryashev, F.A.Kerimov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borib o'zlarini darslik, o'quv qo'llanma, maqola va tezislarda sportchilarni texnik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan yangi taklif hamda tavsiyalarni tizimli ishlab chiqishgan. Malakali voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarligining takomillashuvi yuzasidan mahalliy masalalariga qaratilgan muammolar yuzasidan A.A.Ummatov, A.A.Boltayev, M.B.Ibragimov, A.A.Pulatov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlari ham malakali voleybolchilarning yillik tayyorgarligi muammolari bo'yicha M.A.Godik, L.P.Matveev, V.N. Platonov, F.P.Suslov, O.S.Shalaev, V. L.Pavel, L.P.Sergiyenko va boshqalar tomonidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy olimlardan Gabbett va Georgieff, Lidor va Ziv, N.P.Garganeeva, V.V.Kalyuzhin, J.Res, J.Odea, Xelifi Monji va boshqa olimlar tomonidan malakali voleybolchilarning yillik mashg'ulotlari tuzilishini sikllarda takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va uning tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, anketa so'rovnomasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik statistika uslubi,

tadqiqotning tashkil qilinishida ularni qo'llash uslubiyati va shartlari batafsil yoritilgan. Dissertatsiya ishini bajarish va tashkil qilish uchun foydalanilgan ilmiy tadqiqot usullari yoritilgan. Dissertatsiyaning tadqiqotlar quyidagi bosqichlarda o'tkazildi.

I bosqich (2023) – adabiy manbalardan foydalangan holda voleybolchi qizlarni tayyorlashning asosiy muammolari o'rganildi, voleybol jamoalarini tayyorlash tizimining ilmiy-nazariy asoslari holati aniqlandi, voleybolchi qizlarni tabaqalashtirilgan tayyorlash tizimini, ularning o'yin ampulasini hisobga olgan holda takomillashtirishga qaratilgan nazariy uslubiy va amaliy yondashuvlar tahlil qilindi va umumlashtirildi.

II bosqich (2023-2024) – voleybolchilarning o'yin ampulasini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan tayyorgarligi tahlili o'tkazildi, o'yinchilarning ampulalariga bo'lgan ehtiyojni belgilovchi omillar aniqlandi. Voleybolchi qizlarni o'yin ampularini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan holda tayyorlashning pedagogik modeli ishlab chiqildi va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar asoslab berildi.

III bosqich (2024) – asosiy, ishlab chiqilgan metodika samaradorligini tekshirish bo'yicha tajriba o'tkazishga mo'ljallangan. Bu bosqich quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- o'tkaziladigan tizim doirasining dastlabki holatini (malakali voleybolchi qizlarning mashg'ulot faoliyati va jismoniy tayyorgarligini) o'rganish;
- tajriba o'tkaziladigan shart-sharoitlarning dastlabki holatini o'rganish;
- taklif etilgan chora-tadbirlar samaradorligi mezonlarini shakllantirish, tajriba qatnashchilariga uni samarali o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risida yo'l-yo'riqlar berish;

IV bosqich (2024-2025)- pedagogik tajribani tashkil etish, amalga oshirish va natijalarini tahlil qilishni o'z ichiga oldi. Tajriba davomida voleybolchi qizlarning o'yin ampulasini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan tayyorgarligi, voleybolchi qizlarning individual imkoniyatlarini maksimal darajada ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Shu bilan birga, voleybolchi qizlarni tayyorlashning individual va guruh shakllari mahorat bilan uyg'unlashtirilib, jamoaviy ko'rsatkichlar oshirildi. Jamoa harakatlarini takomillashtirish muammosini hal qilishda voleybolchi qizlarni tabaqalashtirilgan tayyorlashni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar va omillarni modellashtirish ularning o'yin ampularini hisobga olgan holda amalga oshirildi. Voleybolchi qizlarni o'yin ampularini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan tayyorlash modeli uchta modellashtirish darajasini o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning “Voleybolchi qizlarning o'yin ampulasi bo'yicha differensial tayyorlashning pedagogik xususiyatlari ” deb nomlangan uchinchi bobida, malakali voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan ularning o'yin ampulasini hisobga olgan holda maqsadli foydalanishga katta e'tibor qaratish, bunday o'quv mashg'ulotlarini voleybolchi qizlar bilan tashkil etish tajribasi ularni o'yin samaradorligini yuqori darajada ta'minlashi nazarda turdi.'

Tadqiqot boshida voleybolchi qizlarning jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida nazorat (O'zDJTSUFF) va tajriba (ADU) guruhlari ishtirokida bir qator testlar o'tkazildi. Olingan natijalar tahlili

shuni ko'rsatadiki, ikki guruh sportchilarining ayrim ko'rsatkichlari o'rtasida ma'lum farqlar mavjud. (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Voleybolchi qizlarni tadqiqot boshidagi jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

| Nazorat testlar | Nazorat guruhi (O'zDJTSUFF) n=29 | | | Tajriba guruhi (AndDU) n=29 | | | t | P |
|-------------------------------------|-------------------------------------|----------|-------|--------------------------------|----------|-------|------|-------|
| | \bar{X} | σ | V | \bar{X} | σ | V | | |
| Tana uzunligi, sm | 165,13 | 7,48 | 4,53 | 167,25 | 8,11 | 4,85 | 1,03 | >0,05 |
| Tana og'irligi, kg | 48,74 | 4,14 | 8,49 | 50,13 | 4,33 | 8,64 | 1,25 | >0,05 |
| Oldinga egilish, sm | 3,42 | 0,43 | 12,57 | 3,31 | 0,43 | 12,99 | 0,76 | >0,05 |
| O'ng qo'l kuchi, kg | 36,84 | 4,27 | 11,59 | 38,31 | 4,58 | 11,96 | 0,87 | >0,05 |
| Chap qo'l kuchi, kg | 35,61 | 3,77 | 10,58 | 36,74 | 4,03 | 10,97 | 1,10 | >0,05 |
| 3 kg to'puloqtirish, m | 8,82 | 1,11 | 12,60 | 8,86 | 1,15 | 12,98 | 0,63 | >0,05 |
| Yuqoriga sakrash, sm | 28,31 | 3,00 | 10,59 | 26,67 | 2,93 | 10,99 | 0,72 | >0,05 |
| Yugurib kelib uzunlikka sakrash, sm | 310,47 | 35,96 | 11,58 | 309,39 | 37,07 | 11,98 | 0,45 | >0,05 |
| "Archasimon" yugurish, s | 18,87 | 2,38 | 12,59 | 17,47 | 2,27 | 12,99 | 1,09 | >0,05 |
| 50 m.ga yugurish, s | 10,1 | 1,17 | 11,60 | 10,15 | 0,17 | 11,96 | 0,82 | >0,05 |
| 3x10 m.ga yugurish, s | 8,1 | 1,10 | 13,59 | 8,24 | 1,15 | 13,98 | 0,62 | >0,05 |

Ushbu jadvalga ko'ra jismoniy rivojlanganlik darajasi nazorat guruhida ya'ni, tana uzunligi o'rtacha $165,13 \pm 7,48$ sm.ni tashkil etgan bo'lsa, vazn og'irligi $48,74 \pm 4,14$ kg teng ekanligini aniqladik. Ushbu ko'rsatkichning tajriba guruhida $167,25 \pm 8,11$ sm.ni tashkil etdi. Vazn esa $50,13 \pm 4,33$ kg.ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Biz ularni eguluvchanlik darajasini aniqlaganimizda oldinga egilish nazorat guruhida $3,42 \pm 0,43$ sm.ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba guruhida bu ko'rsatkich $3,31 \pm 0,43$ sm.ga tengligi tadqiqot boshida aniqlandi. Qo'l kuchi dinometriyasi esa o'ng qo'lda $36,84 \pm 4,27$ kg.ni tashkil etdi. Chap qo'l nazorat guruhida $35,61 \pm 3,77$ kg teng bo'ldi. Tajriba guruhi sinalluvchilarida ushbu ko'rsatkich o'ng qo'lda $38,31 \pm 4,58$ kg.ni tashkil etgan bo'lsa, chap qo'l ko'rsatkichi $36,74 \pm 4,03$ kg.ni tasklil etdi. Qo'l kuchini aniqlashda 3 kg to'ldirma to'pni uloqtirishda nazorat guruhi $8,82 \pm 1,11$ sm.ga uloqtirgan bo'lsa, tajriba guruhi $8,86 \pm 1,15$ sm.ga o'rtacha to'pni uloqtirishga erishdilar. Yuqoriga sakrash sinovida nazorat guruhi $28,31 \pm 3,00$ sm balandlikka sakragan bo'lsa, tajriba guruh sinalluvchilari $26,97 \pm 2,93$ sm balandlikka sakraganligini ko'rishimiz mumkin. Navbatdvgi yugurib kelib uzunlikka sakrash sinovida nazorat guruhi $310,47 \pm 35,96$ smga sakrashga erishganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu sinov testini tajriba guruhi sinalluvchilari $309,39 \pm 37,07$ sm.ga sakrashganini ko'rishimiz mumkin. Keyingi archasimon 9 m masofaga yugurish sinovini nazorat guruhi $18,87 \pm 2,38$ soniyaga yugurib o'tgan bo'lsa, tajriba guruhi ushbu masofani $17,47 \pm 2,27$ soniyada yugurib o'tishga erishdilar. Tezkor kuch talab etiladigan navbatdagi 50m masofaga pastki startdan yugurish sinovini nazorat guruhi $10,10 \pm 0,19$ soniyada

yugurib o'tishga erishdilar. Tajriba guruhi esa ushbu masofani $10,15 \pm 0,17$ soniyada yugurib o'tishga erishganligini ko'rishimiz mumkin. 50 m masofaga yugurish nazorat guruhida $10,10 \pm 1,17$ soniyada masofani yugurib o'tishgan tajriba guruhida esa bu ko'rsatkich $10,15 \pm 0,17$ soniyani tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot jarayonida voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida maxsus ishlab chiqilgan baholash mezonlaridan foydalanildi. Ushbu mezonlar o'yinchining asosiy texnik harakatlarini — to'p uzatish, hujum zarbasi, to'pni o'yinga kiritish, to'pni qabul qilish va to'siq qo'yish elementlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. (2-jadvalga qarang)

2 -jadval

Voleybolchi qizlarning to'p uzatish, hujum zarbasi, to'pni o'yinga kiritish texnikasi bo'yicha baholash mezonlari

| To'p uzatish | | | | Hujum zarbasi | | | | To'pni o'yinga kiritish | | | |
|--|------|--------------------|-------------|--|------|--------------------|-------------|---|------|--------------------|-------------|
| Tayanch holatdan yuqoridan . Sakrab yuqoridan | | | | To'g'ridan . Yo'nalishini o'zgartirib Aldamchi | | | | Yuqoridan to'g'ridan . Sakrab yuqoridan | | | |
| 1. 3-zonadan 4-zonaga 1,5 m balandlikda to'pni yuqoridan aniq uzatish. 2. Sherigi tashlagan to'pni sakrab 4-zonaga aniq uzatish. 3. Belgilangan zonaga o'rnatilgan xalqani nishonga olish. | | | | 1. Chiziq bo'ylab hujum zarbasini bajarish 2. Diogonal chiziq bo'ylab hujum zarbasini bajarish 3. 4-3-2-zonalardan hujum zarbasini bajarish. 4. Yakkalik va guruhli to'siqqa qarshi hujum zarbasini amalga oshirish 5. Ikkinchi liniyadan hujum zarbasini bajarish | | | | 1. Liniya bo'ylab to'pni o'yinga kiritish 2. Diogonal bo'ylab to'pni o'yinga kiritish 3. 3 metrlik zonaga to'pni kiritish 4. Orqa chiziqqa to'pni o'yinga kiritish | | | |
| Natija | Ball | Texnika uchun ball | Umumiy ball | Natija | Ball | Texnika uchun ball | Umumiy ball | Natija | Ball | Texnika uchun ball | Umumiy ball |
| 8-9 | 10 | 0-5 | 15 | 8-9 | 10 | 0-5 | 15 | 8-9 | 10 | 0-5 | 15 |
| 6-7 | 8 | 0-5 | 13 | 6-7 | 8 | 0-5 | 13 | 6-7 | 8 | 0-5 | 13 |
| 4-5 | 5 | 0-5 | 10 | 4-5 | 5 | 0-5 | 10 | 4-5 | 5 | 0-5 | 10 |
| 1-3 | 0 | 0-5 | 5 | 1-3 | 0 | 0-5 | 5 | 1-3 | 0 | 0-5 | 5 |

To'p uzatish texnikasini baholashda sportchilarning tayanch holatdan va sakrab yuqoridan to'p uzatishdagi aniqligi, to'pning uchish yo'nalishi hamda belgilangan zonaga yo'naltirish aniqligi inobatga olindi.

Hujum zarbasi texnikasi esa to'pni o'zgartirib yo'naltirish, chiziq bo'ylab hamda diagonal yo'nalishda amalga oshirish, shuningdek, aldamchi zarba qo'llay bilish ko'nikmalari orqali baholandi.

To'pni o'yinga kiritish elementida sportchilarning yuqoridan va sakrab yuqoridan bajarilgan to'pni o'yinga kiritish zarbalarining aniqligi, belgilangan zonaga tushish darajasi hamda zarba kuchi e'tiborga olindi. Har bir ko'rsatkich bo'yicha natijalar 15 ballik tizim asosida baholandi va umumiy texnik tayyorgarlik darajasi aniqlab chiqildi. Mazkur baholash tizimi voleybolchi qizlarning texnik mahoratini kompleks ravishda tahlil qilish, ularning o'yindagi samaradorligini aniqlash hamda mashg'ulot jarayonida kuchsiz jihatlarni belgilab olish imkonini

berdi. (3-jadvalga qarang)

3-jadval

To'pni qabul qilish va to'siq qo'yish bo'yicha baholash mezonlari


| To'p qabul qilish | | | | To'siq qo'yish | | | |
|---|------|--------------------|-------------|---|------|--------------------|-------------|
| Tayanch holatdan Yiqilib pastdan | | | | Yakka tartibda Guruh bo'lib to'siq qo'yish | | | |
| 1. Kiritilgan to'pni pastdan qabul qilish. 2. Kiritilgan to'pni ikki qo'lda yuqoridan qabul qilish. 3. 1-6-5-zonalardan to'pni qabul qilish va uzatish. | | | | 1. 2-3-4-zonalardan raqib tomonidan berilgan zarbaga yakka tartibda to'siq qo'yish. 2. To'r ustida va undan uzoqroqqa ilib qo'yilgan to'plarga qo'l tekkazish. 3. Ikki tomonlama o'yin davomida to'siq qo'yish. | | | |
| Natija | Ball | Texnika uchun ball | Umumiy ball | Natija | Ball | Texnika uchun ball | Umumiy ball |
| 8-9 | 10 | 0-5 | 15 | 8-9 | 10 | 0-5 | 15 |
| 6-7 | 8 | 0-5 | 12 | 6-7 | 8 | 0-5 | 13 |
| 4-5 | 5 | 0-5 | 8 | 4-5 | 5 | 0-5 | 10 |
| 1-3 | 0 | 0-5 | 2 | 1-3 | 0 | 0-5 | 5 |

Voleybolchi qizlarning himoyaviy texnik tayyorgarligini aniqlash maqsadida baholash mezonlariga muvofiq ravishda to'pni qabul qilish va to'siq qo'yish elementlari tahlil qilindi. Bunda bajarilish aniqligi, tezkorlik, barqarorlik hamda texnik xatoliklar inobatga olindi. To'pni qabul qilish mashqlarida voleybolchi qizlar tayanch holatdan va past holatdan to'pni aniq va barqaror qabul qilish, shuningdek, belgilangan zonalarga yo'naltirish bo'yicha sinovlarini amalga oshirdilar. Ularning to'pga nisbatan tez reaksiya bildirish qobiliyati, tanani muvozanatda ushlab va to'pni kerakli yo'nalishga uzatish mahorati yetarli aniqlandi.

To'siq qo'yish texnikasi tahlilida sportchilarning yakka tartibda hamda jamoaviy to'siq qo'yishdagi harakatlari o'rganildi. Ular raqib zarbalariga qarshi to'siqni vaqtida qo'yish, qo'l harakatlarini to'g'ri joylashtirish va o'yin ichida to'siqdan so'ng tezkor qayta joylashish bo'yicha ijobiy natijalar namoyon etdilar. Ayniqsa, diagonal yo'nalishdagi zarbalarga qarshi to'siq qo'yishda texnik ijro sifati yuqori darajada bo'ldi.

Tadqiqotda sportchilarning texnik tayyorgarligini baholash maqsadida 15 ballik kompleks mezon qo'llanildi. Mazkur tizim voleybol texnik harakatlarini ikki asosiy komponentga ajratgan holda, har birining sport natijasiga ta'sir darajasini ilmiy jihatdan inobatga oladi. 10-ball topshiriqning natija bo'yicha bajarilganligini baholash, 5-ball texnik sifatini baholash. Mazkur mezonlar yordamida voleybolchi qizlarning texnik ko'nikmalalarining aniqliligi hamda o'yin jarayonida ularni qo'llay olish qobiliyati kompleks tarzda baholanadi.

Malakli voleybolchi qizlarni musoboqa jarayoniga optimal tayyorlash maqsadida besh haftalik texnik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida dastur ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Dastur sportchilarning texnik harakatlarini yanada mukammal bajarish, o'yin sharoitida barqarorlikni saqlash hamda musoboqa jarayonida yuqori samaradorlik ko'rsatishga yo'naltirildi.(1 rasmga qarang)



1-rasm. Malakali voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan besh haftalik mashg'ulot dasturi

Yuqoridagi rasmda voleybolchi qizlarning hujum zarbasi aniqligi, to'pni qabul qilish va tezkor harakatni bajarish malakasini yaxshilashga qaratilgan. Har bir hafta davomida yuklama hajmi asta-sekin oshirilib, mashqlarning murakkabligi va shiddati orttirib borildi. Birinchi haftada asosan umumiy jismoniy tayyorgarlik va nafas olish tizimini rivojlantiruvchi mashqlar bajarildi. Sportchilar tezlik, chidamlilik va to'p bilan oddiy harakatlarni bajarish bo'yicha mashq qildilar. Ikkinchi haftada hujum harakatlarini va sakrash qobiliyatini oshirishga qaratilgan plyometrik mashqlar, shuningdek, markazdan hujum va to'pni qabul qilish texnikasi ustida ishlashga e'tibor berildi. Uchunchi haftada himoya va blok harakatlari rivojlantirildi. Juftliklarda tezkor uzatish, kuchli hujum zarbasini qabul qilish hamda nafasni to'g'ri taqsimlashga qaratilgan mashqlar bajarildi. To'rtinchi haftada mashg'ulotlar musobaqa sharoitiga yaqinlashtirilib, tezkor qaror qabul qilish, hujumni himoya bilan bog'lash va jamoaviy harakatni uyg'unlashtirish mashqlari bajarildi. Beshinchi haftada esa barcha texnik ko'nikmalarni umumlashtirish, o'yin samaradorligini baholash va harakatlarni avtomatlashtirish maqsad qilingan. Ushdu dastur besh haftalik davrga mo'ljallangan bo'lib, unda hujum, himoya, to'pni o'yinga kiritish, to'p uzatish va to'siq qo'yish kabi texnik elementlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish ko'zda tutilgan. Mashg'ulotlar hajmi va murakkabligi haftadan haftaga ortib boradi hamda differensial asosida tuzilgan. Mazkur dastur sportchilarni texnik mahoratini yanada oshirish, o'yin samaradorligini yanada kuchaytirish hamda amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida voleybolchi qizlarning jismoniy va texnik tayyorgarligini oshirish maqsadida tabaqalashtirilgan dastur ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur dastur voleybolchi qizlarning jismoniy rivojlanish darajasi, texnik mahorati hamda funksional imkoniyatlariga ko'ra tabaqalashtirilgan holda tuzildi. (4-jadvalga qarang)

4-jadval

Hujumchi voleybolchi qizlar uchun tabaqali yondashuv asosida ishlab chiqilgan dasturning musobaqa oldi mezosikldagi 3-4 zarbdor mikrosikllarida mashg'ulotlar tuzilmasi

| Mashg'ulot kunlari | Nazorat mashqlarining mazmuni va shiddati | Meyori | Yo'nalishi |
|--------------------|--|---|---|
| 1-Bosqich | <ol style="list-style-type: none"> 1. Tekis yugurish (maks.dan 50%) + +Nafas mashqlari 2. Past o'tirishdan sakrash (50-60 sm) 3. Nafas mashqlari 4. O'ng, chap, ikki qo'lda to'ldirma to'p bilan zarba (3-5kg) 5. Rezina bilan blok va hujum zarbalari 6. Gimnastika devorida rezina bilan mashqlar 7. Shadow attack (to'psiz hujum zarbasi imitatsiyasi) | 10 min 4x12 5 min 3x10 4x8 5 min 3x12 | Tezkor-kuch Chidamkorlik Egiluvchanlik Majmuaviy |

4-jadvalni davomi

| | | | |
|-------------------------|--|---|--|
| <p>2-Bosqich</p> | <ol style="list-style-type: none"> 1. URM+nafas mashqlari 2. Sprint (6x20m, startdan tezlanish) 3. Tayanib yotishdan barmoqlarda qo'llarni bukib-yozish (oyoq panjalari gimnastika o'rindig'ida) 4. Sakrashda tennis to'pini uloqtirish 5. Yugurib kelib hujum zarbasi (2 va 4 zonadan) 6. Pastdan yuqoriga plyometrik mashqlar (maks 30 s) 7. Core mashqlar (planka, press, oyoq mashqlar) 8. Past o'tirishdan yuqoriga sakrash 9. Tekis yugurish (maksimaldan | <p>5 min</p> <p>6 marta</p> <p>5x 10</p> <p>5 min</p> <p>5 x10</p> <p>4x15</p> <p>4x40s</p> <p>5 min</p> <p>10 min</p> <p>5 min</p> | <p>Tezkorlik</p> <p>Kuch</p> <p>Kuch,</p> <p>Sakrovchanlik</p> <p>Majmuaviy</p> <p>Tezkor-kuch</p> <p>Chidamkorlik</p> |
| <p>3-Bosqich</p> | <ol style="list-style-type: none"> 1. Kombinatsion hujum (pas-hujum-blokdan qaytgan to'pni qabul qilish) 2. Padacha-to'pni qabul qilish- hujum 3. 3x3 kichik o'yin (faqat hujum va blok) 5. To'liq nazorat o'yini (6[6]) 6. Tekis yugurish (maksimaldan 50%) + Nafas mashqlari | <p>15 min</p> <p>10 min</p> <p>15min</p> <p>5 set</p> <p>5 min</p> | <p>Tezkor qaror</p> <p>Texnika</p> <p>Amaliyot o'yn oldi tayyorgarlik</p> |

Pedagogik eksperiment davomida malakali hujumchi ayol voleybolchilarni tayyorlashga tabaqalashtirilgan yondashuv asosida tuzilgan musobaqa oldidan ishlab chiqilgan mezosikl dasturining samaradorligi eksperimental tarzda tasdiqlandi. Nazorat sinovi natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, umumiy rivojlanish, maxsus jismoniy tayyorgarlik va texnik mashqlarning differentsial kombinatsiyasidan foydalanish eksperimental guruhdagi sportchilarning texnik va o'ziga xos jismoniy tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilashga yordam berdi. Xususan, eksperimental mezosiklni tugatgandan so'ng, tajriba guruhidagi voleybolchilarda quyidagilar kuzatildi:

Yugurish boshlanishidan hujum zarbalarining barqarorligi va aniqligi, shu jumladan charchoq ostida; reaksiya tezligi va muvofiqlashtirishning ortishi tufayli to'pni qabul qilish yaxshilandi; sakrash qobiliyatini, harakat tezligini va yuqori oyoq-qo'l harakatlarini muvofiqlashtirishni yaxshilash tufayli blokirovkalash samaradorligini oshirish; va hujum harakatlarining samaradorligi uchun juda muhim bo'lgan tezlik-kuch, chidamlilik va moslashuvchanlikni sezilarli darajada oshirish. Qolaversa, mashg'ulot jarayoni tarkibiga simulyatsiya mashqlari, turli boshlang'ich pozitsiyalardan sakrash, tana vazni va amortizatorlardan foydalangan holda kuch mashqlari kiritilishi hujum va mudofaa

texnik harakatlarida ishtirok etuvchi asosiy mushak guruhlariga har tomonlama ta'sir ko'rsatdi. Eksperimental va nazorat guruhlari faoliyati dinamikasini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, dastlabki dastur bo'yicha mashg'ulot o'tkazgan sportchilar texnik va ixtisoslashtirilgan jismoniy tayyorgarlikning barcha asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha aniqroq ijobiy dinamikani namoyish etdilar. Shunday qilib, tadqiqot natijalari tabaqalashtirilgan yondashuvga asoslangan musobaqa oldidan ishlab chiqilgan mezosikl dasturi hujumchi ayol voleybolchilarning texnik tayyorgarligini oshirish va raqobatbardoshligini oshirishning samarali vositasi ekanligini tasdiqlaydi.

Pedagogik tajriba natijasida shunday xulosaga kelish mumkin, mashg'ulotlar jarayonida deyarli ko'plab texnik elementlar sakrash mashqlari orqali amalga oshiriladi. Biroq, biz tomonimizdan olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, murabbiylar mashgu'ulotlar jarayonida sakrovchanlik yoki sakrash chidamkorligini rivojlantiruvchi mashqlardan kam miqdorda foydalanishi hamda ularning takrorlashlar soni kam ekanligini aniqladik. Shu sababi, voleybolchi qizlarning sakrovchanligini oshirish maqsadida mashqlar kompleksini ishlab chiqdik.(5-jadvalga qarang)

5-jadval

Voleybolchi qizlar uchun sakrash qobiliyatini rivojlantiruvchi mashqlar kompleksi

| Mashq nomi | Mashq turi | Haftasiga necha marta | Takrorlashlar son / set |
|--------------------------------------|-------------|-------------------------|-------------------------|
| Tumbaga sakrash | Pliometrik | 2-3 marta | 3-4 set, 8-10 marta |
| Depth Jump (tumbadan tushib sakrash) | Pliometrik | 2 marta | 3 set, 6-8 marta |
| To'siqlardan sakrash (seriyali) | Pliometrik | 1-2 marta | 3 set, 6-10 to'siq |
| Arqon bilan sakrash | Pliometrik | 3-4 marta (qizdirishda) | 3 daqiqa, 2-3 martalik |
| Plyometrik Push-up | Pliometrik | 2-3 marta | 3 set, 8-10 marta |
| Yugurib qo'l oyoqlarni ochib yopish | Pliometrik | 3-4 marta | 3 set, 15-20 marta |
| Sakrab yurish | Pliometrik | 2 marta | 3 set, 10-12 marta |
| Bir oyoqda sakrab tushish | Pliometrik | 2 marta | 3 set, 8-10 marta |
| Yuqori tizza mashqlari | Pliometrik | 3 marta | 3 set, 20-30 soniya |
| Cho'qqaygan holatda sakrash | Pliometrik | 2 marta | 3 set, 8-10 marta |
| Shtanga bilan cho'qqayish | Kuch mashqi | 2-3 marta | 3-4 set, 6-8 marta |

5-jadvalni davomi

| | | | |
|------------------------------------|------------------------|----------------------------|---------------------|
| Leg Press trenajyori | Kuch mashqi | 1-2 marta | 3 set, 10-12 marta |
| Oyoq uchida ko'tarilish | Kuch mashqi | 3 marta | 3 set, 15-20 marta |
| Giperextensiya | Kuch mashqi | 2 marta | 3 set, 10-15 marta |
| Planka | Kuch mashqi | 5 marta (har mashg'ulotda) | 3 set, 30-60 soniya |
| Hujum zarbasini imitatsiya qilish | Maxsus voleybol mashqi | 2-3 marta | 10-15 marta takror |
| Osilgan to'pga zarba | Maxsus voleybol mashqi | 2 marta | 3 set, 8-10 zarba |
| Harakatdan keyin hujum | Maxsus voleybol mashqi | 1-2 marta | 3 set, 6-8 takror |
| Blokga sakrash | Maxsus voleybol mashqi | 2-3 marta | 3 set, 10 marta |
| Yugurishdan keyin nishonga sakrash | Maxsus voleybol mashqi | 1-2 marta | 3 set, 6-8 marta |

Yuqoridagi jadval malakali voleybolchilarda sakrash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bunda sakrash bilan shug'ullanadigan asosiy mushak guruhlariga har tomonlama ta'sir ko'rsatadigan plyometrik, kuch va voleybolga xos mashqlarni o'z ichiga olgan.

Dastur mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, pliometrik mashqlar eng katta ulushga to'g'ri keladi - umumiy mashg'ulot hajmining 55-60%. Bu pastki ekstremitalarda portlovchi quvvatni rivojlantirish va vertikal sakrash balandligini oshirishda plyometrikaning asosiy roli bilan bog'liq. Kuchli mashqlar taxminan 30-35% ni tashkil etdi, bu kuch bazasining rivojlanishini ta'minlaydi va jarohatlarning oldini oladi. Maxsus voleybol mashqlari (hujum zarbasini taqlid qilish) 10-15% ni tashkil etdi va erishilgan jismoniy tayyorgarlik darajasini musobaqa mashg'ulotlariga o'tkazishga yordam berdi. Hafta davomida o'zgaruvchan to'plamlar soni, takrorlash va mashqlar chastotasi (1 dan 5 martagacha) bilan ifodalangan differentsial yuklardan foydalanish sportchilarning individual xususiyatlarini va ularning funktsional tayyorgarlik darajasini hisobga olishga imkon berdi. Pliometrik mashqlarning asosiy qismi haftada 2-3 marta bajarilgan, bu ayol voleybolchilarda tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalarga mos keladi.

Pedagogik tajriba shuni ko'rsatdiki, ushbu kompleksdan foydalanish natijasida sakrash ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Shunday qilib, tik turgan vertikal sakrash balandligi o'rtacha 8-12% ga, yugurib sakrash 10-15% ga, pastki ekstremitalarning portlash kuchi 9-11% ga oshdi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan mashq majmuasi hujumchi ayol voleybolchilarning o'ziga xos jismoniy tayyorgarligini oshirishning samarali vositasi bo'lib, musobaqa oldidan mashg'ulotlarning mezosikllarida foydalanish uchun tavsiya etilishi mumkin.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan mashqlar kompleksi voleybolchilarda yuqori darajada sakrovchanlikni shakllantirish, o'yinda tezkorlik va samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Dissertatsiyaning **“Voleybolchi qizlarning sport mashg‘ulotlarida texnik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini qo‘llash ishchanlik qolbilyati va finksonal ko‘rsatkichlari haqida sport natijalarini shakllanish dinamikasi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida tajriba yakunida tajriba va nazorat guruhi voleybolchi qizlarining umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tajriba boshida va tajriba oxiridagi ma’lumotlar quyidagichaligi aniqlandi. (6-jadvalga qarang)


6-jadval

Tajriba yakunida tajriba va nazorat guruhi voleybolchi qizlarining umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari pedagogik tajriba davomida o‘zgarish dinamikasi (n=58)

| Pedagogik testlar | Guruh | Tadqiqot boshi | | | Tadqiqot oxiri | | | t | P |
|--------------------------|-------|----------------|----------|-------|----------------|----------|-------|------|--------|
| | | \bar{X} | σ | V% | \bar{X} | σ | V,% | | |
